



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



OpenAIRE



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 3-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

**RAQAMLI ZIYORAT VA YASHIL ENERGETIKA: TURIZM
SOHASIDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR**

Majidova Mahliyo Shomilovna

QarDU Iqtisodiyot fakulteti

Turizm yoʻnalishi 1-bosqich talabasi

E-mail:mahliyomajidova45@gamail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamlashib borayotgan dunyoda raqamli ziyorat va yashil energetika, turizm sohasidagi bir qancha innovatsion yondashuvlar tahlil qilindi. Hozirgi globallashuv davrida turizm nafaqat iqtisodiy termin sifatida balki, ekologik barqarorlikni taʼminlash va madaniy merosni muhofaza qilish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda raqamli ziyorat tizimlarining turistlar va kelayotgan ziyoratchilar uchun bir qancha qulayliklar yaratishdagi oʻrni, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida ziyorat marshurutlarini rejalashtirish, onlayn xizmatlarni keng foydalanish, virtual platformalar orqali tarixiy va diniy maskanlar haqida maʼlumot olish va sayohatni samarali tashkil etish imkoniyatlari kengayib borayotgani taʼkidlandi. Bu esa oʻz navbatida turizm xizmatlari sifatini oshirishga hamda turistlar oqimining ortishiga xizmat qiladi. Shu sababli turizm infratuzilmasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur hisoblanadi.

Kirish. Soʻnggi oʻn yilliklarda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki madaniy almashinuv, ekologik muvozanatni saqlash va hududlarning ijtimoiy rivojlanishiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Shu sababdan ham zamonaviy turizm infratuzilmasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar turizm sohasiga faol kirib kelmoqda. Ayniqsa, ziyorat turizmi rivojlanayotgan davlatlarda raqamli ziyorat tizimlari turistlar va ziyoratchilar uchun bir qancha qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli platformalar orqali ziyorat maskanlari haqida batafsil maʼlumot olish, marshrutlarni rejalashtirish va xizmatlardan onlayn foydalanish imkoniyati mavjud. Shuningdek, turizmning ekologik barqarorligini taʼminlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm infratuzilmasida yashil energetika, yaʼni quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish energiya resurslarini tejash va atrof-muhitni himoya qilishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi turizm sohasida raqamli ziyorat tizimlari va yashil energetika texnologiyalarining innovatsion imkoniyatlarini oʻrganish hamda ularning turizm rivojiga taʼsirini tahlil qilishdan iborat.

Turizm sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasi koʻplab olimlar tomonidan oʻrganilgan. Kotler va Bowen turizm marketingi va xizmatlar sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning muhim rol oʻynashini taʼkidlaydi. Ularning fikricha, raqamli platformalar turistlar bilan samarali aloqa oʻrnatish imkonini beradi. Boshqa tadqiqotchilar esa barqaror turizm rivojida ekologik texnologiyalarning

ahamiyatini alohida qayd etadi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish turizm infratuzilmasining ekologik xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi. So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar ham turizmni raqamlashtirish va yashil texnologiyalarni rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratmoqda. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmatlar bir qancha sifatini oshiradi hamda turistlar oqimini samarali boshqarishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Turizm sohasida raqamli texnologiyalar va yashil energetika texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ilmiy maqolalar, statistik ma'lumotlar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida turizm infratuzilmasida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar mobil ilovalar, virtual ekskursiyalar, onlayn bron qilish tizimlari hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qo'llanilishi tahlil qilindi va asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish turistlar uchun xizmatlarning qulayligini oshiribgina qolmay balki, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali sayohatni rejalashtirish, ziyorat maskanlari haqida ma'lumot olish hamda xizmatlardan foydalanish jarayoni ancha osonlashadi. Shu bilan bir qatorda, turizm infratuzilmasida yashil energetika texnologiyalarini qo'llash energiya sarfini kamaytiradi va ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi. Mehmonxonalar va turistik obyektlarda quyosh panellari va energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasida raqamli texnologiyalar va ekologik energiya manbalarini integratsiya qilish turizm rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli ziyorat tizimlari turistlar oqimini boshqarish, xizmat sifatini oshirish hamda tarixiy va diniy merosni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, yashil energetika texnologiyalarini qo'llash turizm infratuzilmasining ekologik barqarorligini ta'minlaydi. Biroq mamalakat hududida ushbu texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy resurslar va texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ayrim muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasida raqamli ziyorat tizimlari va yashil energetika texnologiyalarini joriy etish zamonaviy innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar turistlar uchun qulay xizmatlar yaratish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik muvozanatni saqlashga yordam beribgina qolmay, mamlakat iqtisodiyotini sezilarli tarzda oshirishga yordam beradi. Kelajakda turizm sohasida raqamli texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kotler P., Bowen J., Makens J. Marketing for Hospitality and Tourism. New York: Pearson Education, 2017.
2. UNWTO. Tourism and Digital Transformation. Madrid: World Tourism Organization, 2020.
3. International Energy Agency. Renewable Energy for Sustainable Tourism. Paris, 2021.
4. Mirzayev M., Raxmonov A. Turizm asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2018.